

**KORXONALARDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA NOMODDIY
AKTIVLAR TAN OLIH MASALALARI**

Ishturdiev Hasan Abdigapparovich
Samarqand davlat vetetinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti « Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrası assistenti

Jumaniyazova Munisa Jamoladdin qizi
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya

Maqolada nomoddiy aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish masalalari, nomoddiy aktivlarning turlari, ularni tan olish mezonlari hamda hisobda to'g'ri aks ettirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: nomoddiy aktivlar, buxgalteriya hisobi, xalqaro standartlar, moliyaviy hisobot, intellektual mulk, tan olish.

Introduction

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirishga asos bo'lmoqda. Prezidentimiz ham qator ma'ruzalarida iqtisodiyotimizni rivojlantirish bo'yicha ta'kidlab kelmoqda, chunonchi "Bir yil ichida mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada erkinlashtirish, biznesga keng yo'l ochish, bu borada qonun ustuvorligi va huquqiy kafolatlarni mustahkamlash bo'yicha tizimli islohotlarni jadal davom ettirdik"¹.

Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarida iqtisodiyotni innovasion rivojlantirishda nomoddiy aktivlar hisobi va auditining nazariy hamda uslubiy asoslarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Nomoddiy aktivlarni tan olish mezonlari, nomoddiy aktivlarni boshlang'ich tannarxida baholash, nomoddiy aktivlarni yaratish jarayoni, tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlar, haqiqiy tannarxi bo'yicha hisob modeli yoki qayta baholangan qiymati bo'yicha hisob modellari asosida baholash tartiblari, nomoddiy aktivlarni qayta baholash natijalarini aks ettirish, nomoddiy aktivlarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalalarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, xalqaro audit standartlari asosida xo'jalik yurituvchi subyektlar nomoddiy aktivlarni audit qilish metodologiyasini takomillashtirish o'ta dolzarb hisoblanadi.

Dunyo bo'ylab joylashgan kompaniyalarning barcha nomoddiy aktivlarining qiymati 2021-yilda 74 trillion dollarni tashkil etdi, bu 2019-yildan buyon 25 foizdan ko'proqni tashkil etdi va 1996-yildagi 6 trillion dollardan katta sakrashni amalga oshirdi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ikkinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimidagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/6221>


Eng yuqori nomoddiy aktivlar reytingiga kelsak, yuqori daromadli davlatlar, jumladan Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh), Niderlandiya, Frantsiya, Buyuk Britaniya (Buyuk Britaniya) va Germaniya reytingda birinchi o'rinda turadi.

Shunday qilib, AQShda nomoddiy aktivlarning kompaniya qiymatiga nisbati eng yaxshi 15 ta korxonada 93% ni tashkil qiladi, boshqacha aytganda, u korxona qiymatiga deyarli tengdir. Tegishli reytingning eng yaxshi yigirmata davlatida intensivlik ko'rsatkichi AQSh yetakchisi holatida 93% dan Germaniyada 80% (10-o'rin) va Kanada (19- o'rin) kabi mamlakatlarda 71% gacha.

O'rtacha daromadli mamlakatlar guruhidagi shaxslar nomoddiy aktivlardan foydalanish intensivligi bo'yicha ham yaxshi natijalarga erishmoqda:

Masalan, Osiyoda Xitoy (11-o'rin), Indoneziya (13-o'rin), Hindiston (14- o'rin) yoki Lotin Amerikasidagi Meksika (16-o'rin) va Braziliya (17-o'rin) haqida gapiramiz; bundan tashqari, kuchli 20 davlatdan joy olgan Turkiya (15-o'rin) va Bolgariya (20-o'rin) ham yaxshi natijalarga erishdi.

Intangible asset intensity, top 15, %Most




O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 apreldagi "Innovation g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlariga ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalarini va nou-xau ishlanmalarni keng joriy etish, ushbu yo'nalishda ilmiy muassasalar va real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari o'rtasida yaqin hamkorlikni o'rnatish mamlakatni jadal innovation rivojlantirishning muhim omili hisoblanishi alohida ta'kidlab o'tilgan. Innovation g'oyalar amaliyotga joriy etilganda nomoddiy aktiv ko'rinishini oladi.

38-sonli "Nomoddiy aktivlar" nomli moliyaviy hisobotning xalqaro standartida nomoddiy aktivga quyidagicha tarif berilgan.

Nomodiy aktiv – moddiy–ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan identifikatsiyalanadigan nomonetar aktiv.


Tashkilotlar tez-tez ilmiy yoki texnik bilim, yangi jarayonlar yoki tizimlarni loyihalash va joriy etish, litsenziyalar, intellektual mulk, bozor to'g'risidagi bilimlar va savdo markalari (jumladan, firma nomlari va chop etish huquqlari) kabi nomoddiy resurlarni xarid qilish, ishlab chiqish, saqlab turish yoki takomillashtirish bo'yicha resurslarni sarflashadi yoki majburiyatlar olishadi.



1-rasm. Nomoddiy aktivlar klassifikatsiyasi.

Nomoddiy aktivning ta'rifi nomoddiy aktivni gudvildan farqlanishi uchun uni identifikatsiyalanadigan bo'lishini talab etadi. Biznes birlashuvi natijasida tan olingan gudvil biznes birlashuvi natijasida harid qilingan boshqa aktivlardan olinadigan kelgusi iqtisodiy naflarni ifoda etuvchi, individual tarzda identifikatsiyalanmaydigan va alohida tan olinmaydigan aktivdir. Kelgusi iqtisodiy naflar xarid qilingan identifikatsiyalanadigan aktivlarning o'zaro birlashuvidan yoki alohida olganda moliyaviy hisobotlarda tan olish mezonlariga javob bermaydigan aktivlardan yuzaga kelishi mumkin.

Nomoddiy aktivlarni tan olishda xalqaro standartlar bo'yicha quyidagi shartlar asosida tan olish mumkin. (2-rasm.)



2-rasm. Nomoddiy aktivlarni tan olish mexanizmi

Nomoddiy aktivlarning xususiyati shundan iboratki, ko'p hollarda, bu kabi aktivni takomillashtirish yoki uni qisman almashtirish amalga oshirilmaydi. Shunga ko'ra, ko'pchilik keyingi sarflar mavjud nomoddiy aktivda mujassamlashgan, kutilayotgan kelgusi iqtisodiy nafni ta'minlash uchun amalga oshiriladi, lekin ular mazkur standart bilan belgilangan nomoddiy aktiv ta'rifi va tan olish mezonlariga javob bermaydi. Bundan tashqari, keyingi sarflarni umumiy holda biznesga emas, bevosita muayyan nomoddiy aktivga olib borish ko'p hollarda qiyindir.

Shuning uchun, keyingi sarflar, ya'ni harid qilingan nomoddiy aktivni dastlabki tan olishdan so'ng yoki tashkilotning o'zida yaratilgan nomoddiy aktivni yakunlangandan so'ng amalga oshirilgan sarflar, aktivning balans qiymatida kamdan-kam hollarda tan olinadi. 63-bandga muvofiq savdo markalari, sarlavhalar, noshirlik huquqi, haridorlar ro'yxati va mohiyatan shunga o'xshash moddalar (tashkilot tomonidan harid qilingan yoki tashkilot o'zida yaratilganidan qat'iy nazar) bo'yicha amalga oshirilgan keyingi sarflar har doim yuzaga kelishi bilan tashkilotning foyda yoki zarari tarkibida tan olinadi. Chunki, bunday sarflarni biznesni umumiy holda rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan sarflardan ajratish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Andriessen D., Tissen R. Weightless Wealth: Find Your Real Value in a Future of Intangible Assets. Financial Times Prentice Hall, 2000., Bernard Marr. Perspectives on Intellectual Capital. Elsevier Butterworth Heinemann, 2005.,
2. Brad Sherman The making of modern intellectual property law: the British experience, 1999. 1760-1911. Cambridge University Press. P.207. ISBN 978-0- 521-56363-5
3. Пўлатов М.Э. Номоддий активларнинг ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш масалалари. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши. Тошкент 2006 й.
4. Пўлатов, Х. Ў., & Абдугаппаров, Ш. А. (2022). Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартида фойда солиғининг ҳисоблашнинг ўзига хослиги. Экономика и социум, (5-1 (96)), 593-596.
5. Richard T. De George, "Intellectual Property Rights" in The Oxford Handbook of Business Ethics, by George G. Brenkert and Tom L. Beauchamp, vol. Is ted. (England: Oxford University Press) 417.
6. Sveiby K. E. Intellectual Capital and Knowledge Management. 1998.-213 p.
7. Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Duchac, Financial and managerial accounting, 12e. Cengage Learning, 2012. ISBN:1133447813
8. Ishturdiyev, H., Tilabov, S., & Yusupova, E. (2024). Korxonalarda moliyaviy holatini ifodalovchi ko 'rsatkichlar tahlili. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).
9. Ishturdiyev, H., Tilabov, S., & Irisboyev, R. (2024). Korxonalarning xo 'jalik faoliyati hisobining mohiyati, ahamiyati va hisob turlari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).
10. Xaitovich, Y. S., & Abdugapparovich, I. K. (2024). FERMER XO 'JALIKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH. *AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT*, 2(3), 36-44.
11. Иштурдиев, Х. А., & Иштурдиев, Х. А. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА АКТИВОВ ПО МЕЖДУНАРОДНЫМ СТАНДАРТАМ ПРИ МОДЕРНИЗАЦИИ УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ. *WORLD OF SCIENCE*, 7(3), 130-139.